

## YANGI O'ZBEKISTONNING TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING YANGI ISTIQBOLLARI

**Og'abek Norqulov Sharofiddin o'g'li**

*Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya Universiteti*

**Annotatsiya:** *Bugungi kunda har bir davlat o'zining iqtisodiy, ma'daniy va ta'lim sistemasini yanada rivojlantirishga harakat qilayotgan ekan ushbu soha bo'yicha keng qamrovli qayta qurishni boshlashi kerak va aslida ham shunday bo'lmoqda. Yangi O'zbekiston ham ushbu tizimni qaytadan va yangi loyihalar bilan imkon boricha liberallashtirish va xususiyashtirish kerak deb bilaman va bu iqtisodiy tomonlama o'sish uchun bu sohani kichik-kichik bo'limlarga bo'lib yangi rejalar, loyihalar va har xil ishlanmalar ustida bosh qotirish kerak. Agarda biz butun iqtisodiy sohani tarmoqlashtirsak bu maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lardi. Misol uchun, turizm, sanoat, bank tizimi, bozor iqtisodiyoti, mulkchilik va boshqalar. Barcha bo'limlar bir-biridan xoli bo'lgan holda o'z rejalarini amalga oshirishi kerak. Hozir ushbu maqolada iqtisodiyotning yirik bir alohida tarmog'iga aylanib borayotgan turizm haqida gap boradi va bu soha uchun foydali bo'lgan fikr va takliflarni qisqacha bayon qilib ko'raman.*

**Kalit So'zlar:** *Yangi O'zbekiston, Liberallashtirish, Xususiyashtirish, xalqaro transport aloqalari, Turizm aloqalari, UNWTO, konferensiya, ekskursiya faoliyati, turistik indisturiya, gid ( ekskursiya yetakchisi )va turistik huquq.*

### KIRISH

Biz bilamizki turizm- ayni vaqtda davlat iqtisodiyotining eng yaxshi rivoj topayotgan va davlat budjetiga foyda keltirayotgan bir tarmoq hisoblanadi. Uning rivoj etishi, yanada keng taraqqiy etishiga har bir davlat, har bir tashkilot alohida e'tibor qaratmoqda. Misol uchun bizning mamlakatimiz ham bu tarmoqni o'z nazaridan chetda qoldirishni xohlamaydi. Bundan 4 yil oldin aniqrog'i 2019-yil 16-aprelda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan va 2019-yil 21-iyunda Senat tomonida ma'qullangan " Turizm" to'g'risidagi qonun chiqardi<sup>1</sup>. Va bu qonun asosida turizmni yanada takomillashtirish va taraqqiy etish boshlandi. Butun davlatimiz hukumati va vazirliklari bu sohaga juda katta e'tibor berishmoqda. Ularning maqsadi bizning keng ma'daniyatimiz, buyuk tariximizni butun dunyoga tanitishni xohlaydi. Va shunga yarasha harakat qilishmoqda. Chunki, bugungi kunda bu turizm sohasi bo'yicha foyda olayotgan davlatlar juda ko'p va ularning haqiqiy sarbonlari deb Fransiya, Italiya, Turkiya, Buyuk Britaniya, AQSH va yana ko'plab davlatlarni ro'yxatga qo'shsak bo'ladi. Xullas Turizm sohasini yuksaltirish bugungi Yangi O'zbekistonning asosiy maqsadi hisoblanadi desam mubolag'a bo'lmaydi.

## ASOSIY QISM

Turizm – bu qadimdan mavjud boʻlgan va asrlar davomida takomillashib bugungi holatiga kelgan bir soha desak ham boʻladi. Turizm oʻz-oʻzidan 2 ta guruhga boʻlinadi, ichki va tashqi turizmga. Ichki turizmni tushunib yetganingizdek maʼlum bir davlatning oʻz fuqarolari qoʻshni hudud yaʼni bugungi zamonda qoʻshni viloyatlarga amalga oshirilayotgan sayyohlik ishidir. Tashqi turizm – bu albatta xalqaro miqyosda, yaʼni bir davlat hududidan boshqa bir davlat hududiga amaliy tashrif buyurish. Turizmning oʻzi ham maʼlum bir guruhlarga boʻlinadi masalan, “Sport turizmi”, “Etnik turizm”, “Yoshlar turizmi”, “Ekoturizm”, “Gastromomik turizm”, “Madaniy turizm” va “Ziyorat turizm” kabi turlarga boʻlinadi.<sup>2</sup> Aynan bunday turlarga boʻlinishiga sabab har bir insonning oʻz ehtiyojidan kelib chiqqan holda ushbu turizm turlaridan birini tanlaydi. Misol uchun kimdir sportga ehtiyoji mavjud boʻlsa u inson oʻziga maʼqul keladigan joy aniqrogʻi maʼlum bir hudud, viloyat yoki davlatni tanlaydi. Yana kimdir “Madaniy turizmni” tanlaydi chunki bugungi kunda koʻplab insonlar oʻziga notanish boʻlgan davlat maʼlum bir hududning tarixi, dini, madaniyati, urf-odatini oʻz koʻzi bilan koʻrishni xohlaydi. Mening fikrimcha eng koʻp turistik tashrif buyiruvchi sayyohlarning 70 % i “Madaniy turizm” va “sport turizm” ini tanlaydi. Va aynan shu turizm foaliyati ortidan davlatga maʼlum bir foyda keladi.

Har bir sohaning huquqi boʻlgani kabi turizm sohasining ham oʻziga yarasha huquqi va talablari mavjud. Turizm huquqi 2 ga boʻlinadi bular Milliy va Xalqaro turistik huquqlarga va ikkisining ham alohida talab va majburiyatlari mavjud. Misol uchun, Agarda kimki turistik soha bilan shugʻullanmoqchi boʻlsa, uni xususiy tarzda davlatdan holi boʻlgan holatda amalga oshirish mumkin. Albatta u inson birinchi navbatda turistik faoliyatni litsenziyalashtirish kerak. Keyingi oʻrinlarda turistik xizmat va mehmonxona xizmatini sertifikatlashtirishi zarur. Yana undan talab qilinadigan narsa, xalqaro turistik faoliyat olib boradigan har bir xususiy tashkilot oʻzining soliqqa tortishi tartibini albatta koʻzdan kechirishi kerak. Xalqaro turizm huquqini maʼlum bir tashkilot yaʼni xususiy lashtirilgan tashkilot davlat nomidan ish koʻradi unga Turizm va Madaniy meʼros vazirligi hamda Tashqi ishlar vazirligi keng imkoniyatlar yaratib beradi. Xususan, Xalqaro turizm koʻpgina konvensiyalar, xalqaro shartnomalar va bitimlar bilan tartibga solinadi. Dastlab turizm rivojlanishiga asos boʻlgan, dam olish va boʻsh vaqtning asosiy huquqlarini taʼminlash toʻgʻrisidagi bitimga erishiladi. Va aynan Oʻzbekiston ham bunday xalqaro bitimlarni talablarini qabul qilgan.<sup>3</sup>

Turizmni liberallashtirish nima? Liberallashtirish tushunchasi aslida turizmni emas, balki iqtisodiyotga nisbatan ishlatiladi. Ammo turizm ham iqtisodiyotning maʼlum bir sohasi hisoblanib unga nisbatan ham ishlatsak boʻladi. Liberal soʻzi lotinchadan olingan boʻlib, - hur fikrli, erkin shaxs degan maʼnoni anglatadi. Aynan turistik sohaga ham liberallashtirish amalga oshrilsa oʻz-oʻzidan bu sohada buyrokratiya va buyruqbozlik yoʻqolishi mumkin va har bir tashkilot rahbari oʻzini erkin his qilgan holda oʻzining tashkiloti uchun kerak boʻlgan barcha ishlarni amalga

oshiradi va bu liberal odam har bir sohaga foyda keltira oladi. U xoh iqtisod bo'lsin, xoh siyosat baribir liberal fikrlovchi inson eski tamoyil va eskicha yashashga qarshi bo'ladi va eskilik tushunchasini yuqota oladi deb o'ylayman.

Bugungi kunda nafaqat O'zbekiston uchun balki ko'plab davlatlarning asosiy muommolaridan biri bu – transport komunikatsiyalari hisoblanadi. Chunki har bir tashrif buyurgan turistik mehmonga qo'ldan kelgan barcha sharoitlar bilan taminlash kerak xususan unga safar davomida keng qulayliklar yaratishi zarur. Bu muommoni hisobga olgan holda O'zbekistonning turistik markazlari ya'ni Samarqand, Buxoro, Xorazm, Toshkent va boshqa turistik markazga ega bo'lgan viloyatlarning transport yo'llari qayta ta'mirdan chiqdi. Xususan Butunjahon turizm poytaxti deb e'lon qilinishi kutilayotgan Samarqand shahri to'liqligicha, ta'mirga muhtoj bo'lgan yo'llari qayta rekonstruksiya qilindi. O'zbekiston qurilqikdagi transport aloqalaridan tashqari o'zining havo yo'llariga ham e'tibor qaratmoqda. Xususan O'zbekiston Transport vazirligi va “ Uzbekistan Airways’ kompaniyasi yurtimizdagi aeroportlarni xalqaro aeroport darajasigacha ko'tarishni maqsad qilgan. Bugungi kunda yurtimizda 11 ta xalqaro aeroportlar mavjud. Bugungi kunda “ Uzbekistan Airways “ kompaniyasi 50 dan ortiq xorijiy mamlakatlarga parvozlarni amalga oshira oladi<sup>4</sup>. Agarda turizmni rivojlantirishni xohlasak albatta o'zimizning asosiy yo'llarimizni xoh qurilqik, xoh havo yo'llari bo'lsa ham biz uni zamon talablariga moslashimiz zarur. Faqatgina Samarqandni emas balki respublikamizning barcha hududlari , ya'ni nafaqat asosiy balki e'tibordan chetda qolgan, qatnovlar kam bo'ladigan avtomobil yo'llarimizni to'g'irlashimiz kerak. Havo yo'llarida esa faqat 50 dan ortiq mamlakat emas, balki 100 dan ortiq mamlakatlarga doimiy qatnovlarni yo'lga qo'yishimiz zarur. Chunki bugungi kunda dunyoda 240 dan oshiq mamlakat mavjud va undan 193 tasi BMT ning doimiy a'zolari hisoblanadi. Yana bir taklif Saudiya Arabistoni kabi davlatlarga qatnovni ko'paytirish zarur, chunki bizning dinimiz Islomdir va butun musulmonlarga farz hisoblanmish haj safari aynan shu mamlakatga amalga oshiriladi. Agar iloji bo'lsa Toshkent-Jidda va Samarqand-Jidda hamda boshqa viloyatlarning xalqaro aeroportlarining yo'nalishini kengaytirish kerak. Ko'plab holatlarda Uzbekistan Airways kompaniyasi Dubay shahri orqali Jiddaga boradi va bu yo'lovchilarga biroz qiyinchilik tu'g'diradi. Shu sababli to'g'ridan-to'g'ri reyslarni yo'lga qo'yilsa maqsadga muvoffiq bo'lgan bo'lardi.

Har bir davlat o'zining turizm sohasini rivojlantirishdan oldin tashqi aloqalarni yo'lga qo'yishi zarur, aniqrog'ri turizm aloqlarini rivojlantirishi zarur. Yuqorida aytib o'tilgandek, bugungi turizm yetakchilari aynan Fransiya, AQSH, Italiya , Buyuk Britaniya, Shvetsariya kabi davlatlar, xullas tabiati, madaniyati va asosiysi turizmi taraqqiy etgan har qanday mamlakat bilan xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yishi zarur. Ular bilan ikkitomonlama va ko'ptomonlama xalqaro bitim tuza olish kerak. Ularning tajribalarini o'rganish uchun. O'zimizning turizm sohasi bo'yicha tahsil olayotgan har qanday talabani o'sha yuqoridagi mamlakatlarga amaliyot o'tashga yuborish zarur. Chunki bizga yangi taraqqiyot yo'li ya'ni rivojlangan davlatlarning turizm bo'yicha

strategiyasini har tomonlama o'rganib uni zamon talabiga moslashtirgan holda o'zimizning yurtga tadbiq etish zarur deb bilaman.

O'sha xalqaro tizimni yo'lga qo'yishga ko'maklashadigan va uni har xil normalar bilan nazorat qiladigan, kerak bo'lsa moddiy va ma'naviy tomondan yordam bera oladigan tashkilot mavjud. Bu – UNWTO ( The World Tourism Organizations is the United Nations ) – Butunjahon Turizm Tashkiloti. Ayni vaqtda bu tashkilotga 160 ta mamlakat a'zo , yana 6 ta assotsiativ a'zo, 2 ta kuzatuvchidan iborat. O'zbekiston ham 160 mamlakat qatori teng imkoniyatlarga ega va bu tashkilotning doimiy a'zosi hisoblanadi<sup>5</sup>. Aynan shu tashkilot tashabbusi bilan 2023-yil Samarqand shahri “Butunjahon Turizm Poytaxti“ deb e'lon qilinadi. Va bu qaror biz uchun, bizning turizm uchun juda katta imkoniyatlar eshigini ochishiga ishonchim komil. Va biz ham bu imkoniyatdan qo'ldan kelgancha foydalanib qolishimiz zarur.

Yuqorida sizning “konferensiya” degan so'zga ko'zingiz tushdi albatta, va sizda bu konferensiya bizga nega kerak degan savol ham tug'ilgan bo'lsa ajablanmayman. Hop bizga bunaqa xalqaro va milliy anjumanlar, har xil sammitlar nega kerak deb o'ylasangiz, buni bizga qanchalik zarur va foydali ekanligini aytib o'tsam. Bugungi kunda, butun dunyo aholisi o'zini ijtimoiy tarmoqlarisiz (telegram, Instagram, facebook, twitter, email, you tube va boshqa internet tarmoqlarisiz) tasavvur qila olmaydi. Va bu ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning ajralmas bir bo'lagiga aylandi deb qo'rqmasdan ayta olaman. Men bejiz bu ijtimoiy tarmoqlari jumlasini bilan gapimni boshlamadim, chunki doim ijtimoiy tarmoqda har xil moliyalashtirilgan tanlov, har xil grantlar, sertifikatli konferensiyalar va stipendiyali tanlovlarga ko'zim tushadi. Va xuddi siz kabi menda ham bu nima uchun kerak degan savol tug'ilar edi va buning javobini juda ko'p qidirdim va yaqindagini bu tanlovlarning maqsadini tushundim. Masalan siz talaba bo'lsangiz, siz albatta nomdor davlat stipendiyalari va prezident stipendiyasini olishni albatta xohlaysiz. Va sizga uni yutish uchun kerak bo'ladigan narsalardan biri bu sizning ijtimoiy faolligingiz, ya'ni siz ushbu xorijiy sertifikatga ega bo'lsangiz sizning nomdor davlat stipendiyalari va prezident stipendiyasini olishingiz biroz osonlashgan bo'ladi. Va unda siz ishtirok etasiz va o'sha konferensiya e'lon qilgan davlat tashkiloti bu grandni guruhlashtiradi. Agar siz yuz foizlik natija bilan grand yutgan bo'lsangiz, siz u yerda yotoqxona, bilet narxi (borib-kelish albatta) va undan tashqari sizning o'zingiz uchun, ya'ni o'z ehtiyojingiz uchun chiqim amalga oshirmaysiz, va buning barchasi tashkilot tomonidan amalga oshiriladi. Agar o'sha grand yetmish foizlik bo'lsa unda tashkilot ma'lum bir qismini moliyalashtiradi. Misol uchun yotoqxona va bilet narxini o'z bo'yniga oladi, qolgan barcha sarf-xarajatlarni o'z hisobingizdan amalga oshirasiz. Yana grandlardan tashqari o'zingiz moliyalashtirgan holatda, ya'ni barcha sarf-xarajatlar (yotoqxona, bilet narxi, o'z ehtiyojingiz uchun xarajatlar) o'z hisobingizdan qatnashishingiz mumkin degan bandni ham keltirib o'tishadi. Xuddi biz ham shu kabi moliyalashtirilgan har xil xalqaro konferensiyalar, grandlar, stipendiyali tanlovlar va sertifikatli anjumanlarni tashkil etishimiz kerak deb bilaman. Chunki biz kabi chet

ellik talaba yoshlar ham O'zbekistonda bo'lishni albatta xohlashadi, xuddi biz chet elda anjuman, konferensiyalarda ishtirok etishni xohlaganimiz kabi. Bundan tashqari o'sha xalqaro konferensiyalarni milliy tarzda ya'ni viloyatlar, ma'lum bir hududlar kesimida ham o'tkazsak bo'ladi. Va buning uchun, aniqrog'i moliyalashtirish uchun tashkilotlar ham bizning mamlakatda albatta topiladi.

Ayni vaqtda Turizm vazirligi va turli xil turistik tashkilotlar tomonidan turizm faoliyatini rivojlantirish bilan bir qatorda ekskursiya faoliyatini ham yo'lga qo'yish kerak. Ekskursiya bu - ma'lum bir hududga, talaba, o'quvchi va shu bilan bir qatorda biror bir xususiy kompaniyaning xodimlari va davlat tashkiloti xodimlar yoki barcha jismoniy shaxslar bir guruh bo'lib qadimiy, chiroyli va inson mazza qilib hordiq chiqarishi mumkin bo'lgan joylarga amaliy tashrifidir. Bu o'z-o'zidan ichki turizmni shakllantiradi va kerak bo'lsa uni yangi bosqichga olib chiqadi. O'sha ekskursiyani xalqaro qilish uchun turli xil turistik kompaniyalar turli davlatlarning aholisi va biror xorijiy kompaniya bilan shartnoma tuzgan holatda chet ellik aholini yurtimizga jalb qilish mumkin. Va bu tashqi turizm uchun foydali bo'ladi.

Turistik industriya nima? Turistik industriya (sanoat) – turizm jarayonida turizm xizmatlari, ish va tovarlarni yetkazib beruvchi o'zaro muvofiqlashtirilgan tizimdir. Bu turistik industriya rivojlanishi o'zi bilan birga iqtisodiyotning sanoat bo'limini ham rivojlantiradi. Agarda turizm rivojlantirishni xohlasa butun davlat tizimni xususiylashtirish va yangi investitsiyalarni jalb qilishi kerak. Hozirda qurilayotgan yirik mehmonxonalar, ko'ngilochar parklar aniqrog'i jamiki turistik mehmonlarga xizmat ko'rsatuvchi obyekt va tizimga yangidan yangi sarmoylarni kiritish kerak. Xoh u chet ellik investor bo'lsin, xoh milliy. Bularning barchasiga teng hamda keng imkoniyatlarni joriy etish zarur. Kerak bo'lsa yoshlar orasida, yosh tadbirkorlar orasida yangi loyihalar uchun startuplar va har xil yirik mablag'li tenderlarni tashkil etish kerak. Va ularning loyihalarining ichida davlat uchun katta foyda keltiradiganlarini belgilab uni amalga oshirish uchun rejalashtirish kerak.

Yuqorida yana bir jumlaning keltirib o'tdim. Bu gidlik (ekskursiya yetakchisi) hisoblanadi. Xo'sh nima uchun bu tizimga aniqrog'i gidlik sohasiga alohida e'tibor berishimiz zarur. Chunki bugungi kunda qayerga tashrif buyurmang, qaysi davlatga sayohat amalga oshirmang u yerda siz xalqaro til hisoblanmish ingliz tili orqali muloqat qilasiz. Shuning uchun iloji boricha xalqimiz, yosh avlodni ingliz tili ko'nikmasini yana rivojlantirish va ularga keng qulayliklar yaratishimiz zarur. Agar biz gidlik sohasiga e'tibor qaratar ekanmiz, biz ular uchun ushbu soha mutaxasisi tayyorlaydigan oliy maktab joriy etsak yaxshi bo'lar edi. Bu maktab hech qanaqa oliygoh emas, shunchaki gidlik va turizm mutaxasisi tayyorlaydigan aniqrog'i turizmga iqtisoslashtirilgan maktab, unda ta'lim 2 yildan iborat bo'lishi kerak va unda asosiy fanlar Xorijiy tillar, Matematika, Tarix (O'zbekiston tarixi va Jahon tarixi), O'zbek tili va Adabiyoti hamda inson hayot uchun kerak, ya'ni har bir o'smirning keying maqsadlariga qarab turli fan va xorijiy adabiyotlarni qo'shish kerak.

## XULOSA

Xullas yuqorida aytib o'tganimdek , Turizm faoliyatini rivojlantirishni xohlasak albatta uni xususiylashtirish, va markaziy davlat apparatlarini liberal xodimlar bilan to'ldirish yana har bir yosh avlod, talabalar o'z fikrini, o'z taklifini bera olish uchun Turizm markazlari tomonidan har xil xalqaro hamda milliy konferensiyalarni amalga oshirish kerak. Va ular aytib o'tgan fikr va loyihalarni xop deyish orqali og'izda emas, balki amalda qo'llash zarur. Men ham ushbu maqalom orqali, o'zimning shaxsiy fikrlarimni aytib o'tdim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Turizm va Madaniy me'ros vazirligi rasmiy sayti.
2. "Turizm Asoslari" kitobi/ Mirzayev Murotjon Ahmadjonovich, Aliyeva Mahbuba To'ychiyevna.
3. "Turizm: Nazariyasi va Amaliyot"/ M.R.Boltaboyev, I.S.Tuxliyev, B.SH.Safarov, S.A.Abduxamidov
4. "Uzbekistan Airways" kompaniyasi rasmiy sayti. <https://www.uzairways.com>
5. "Butunjahon Turizm Tashkiloti" rasmiy sayti. <https://www.unwto.org>
6. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi rasmiy sayti. <https://www.stat.uz>